

PROBLEMS OF EMPLOYMENT OF THE DISABLED

Nizomov A. N.

SamSU Network Economics chair of the department, associate professor.

Kozibaev B.A.

SamSU Digital Economy

Department of Basic Doctoral Studies

Khayrullayeva D. D.

SamSU Human Resource Management

faculty 3rd year student

Annotation:

This article considers the issues of ensuring that people with disabilities study, work, and live a full life, just like all members of society.

Key words: population with disabilities, theory, law, rights, privileges, conditions, proposals, analysis, practical.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng bozor munosabatlariga o'tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini, ayniqsa nochor guruhlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirildi, pensiya jamg'armasi, ijtimoiy nafaqalar, ularning indeksatsiyasi kabi tushunchalar va tuzilmalar amalda qo'llanila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" gi 1993-yil 3-senatdagi Qonunida pensiyalar miqdori mehnat staji va o'rtacha ish haqqi yanada uzviy bog'landi. Pensiya va ijtimoiy nafaqalar tushunchalariga, pensiya-mehnat stajiga ko'ra qo'lga kiritilgan huquq, ijtimoiy nafaqa esa muhtojlarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordam deb izoh berildi.

Shuningdek nogironligi bor shaxslarning huquqlari mamlakatimiz Konstitutsiyasining 18, 39, 40, 41 moddalari bilan kafolatlangan.

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi IV bandi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" ga bag'ishlangan bolib, uning 4.2. bo'limi pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga bag'ishlanadi.

Aholi manfaatlarini ko'zlash siyosati hozirgi kunda ham davom ettirilib, davlat siyosatining diqqat markazida turibdi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2020 yil 29-dekabrda parlamentga

va xalqqa qilagan murojaatnomasida aholining ijtimoiy muhofazasi to'g'risidagi nutqlarida, ehtiyojmand, nogironligi bo'lgan va davolanishga muhtoj bolalarga alohida mehr-muruvvat ko'rsatish bo'yicha yangi tizim joriy etilishi, kelgusi yildan onko-gemotologiya sohasi va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarda diagnostika va tibbiy amaliyotlar uchun byujetdan 250 milliard so'm, 5000 dan ortiq buyrak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarni esa bepul gemodializ xizmati bilan ta'minlash uchun 140 milliard so'm ajratilishi va 25000 dan ortiq nuroniylarning sog'lig'i sifatgohlarda va dam olish maskanlarida tiklanishi haqida alohida to'xtalib o'tdilar.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida qariyb 35 mln aholi yashasa shundan O'zbekistonda 630 mingdan ziyod nogironlar rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tkazilgan. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, ularning 25 foizdan ko'prog'i yoki 162,2 ming kishi «muayyan turdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga layoqatli» deb topilgan.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy nogironligi bor aholini ish bilan ta'minlash masalasi afsuski yetarli darajada emas. 16–59 va 16–54 yoshdagi nogiron erkaklarning faqat 7,1% mos ravishda 2019 yilda ish bilan ta'minlangan edi.

Albatta hozirgi kunda O'zbekistonda 2020-yilning yanvar-sentyabr oylarida ishsizlik darajasi 11,1 foizni tashkil etadi. Vatandoshlarimizning pandemiya tufayli chet eldan qaytishi ya'ni Rossiyadan 700000 kishini qaytib kelishi va boshqa davlatlardan ko'plab vaxtincha mehnat bilan band bo'lganlarning qaytishi ishsizlar sonini ko'paytirib, bandlik masalasini yanada kuchaytirdi. Mamlakatimizda nogironligi mavjud bo'lgan aholini ish bilan ta'minlash masalasi nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunday insonlarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda to'liq ish kuni yoki vaqtinchalik ish bilan ta'minlash masalasiga e'tibor berilib, ularni mamlakat tomonidan ijtimoiy himoya paketlaridan to'liq foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, nogironligi mavjud bo'lgan kishilarni ishga qabul qilgan korxonalar va tashkilotlar davlat tomonidan soliqlardan imtiyozlar kabi dastaklar yordamida qo'llab-quvvatlanadi va rag'batlantiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ham albatta nogironligi mavjud aholini ish bilan ta'minlash va ularga har qanday shart sharoitlar yaratish bo'yicha chora tadbirlar qo'llanilmoqda. Xususan «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 25-moddasida kamida 20 kishi ishlaydigan davlat muassasalari va xususiy korxonalariga nogironlar uchun ish joylarining kamida 3 foizini zaxiralash majburiyati yuklatilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan yan bir qator imtiyozlar yaratilgan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari mavjud bo'lib, qat'iy belgilangan soliq stavkasi to'lovchisi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat'i nazar, oyiga qat'iy belgilangan miqdordagi soliqning 50 foizini, biroq BHMning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'lash, mulkida bo'lgan mol-mulk 60 kvadrat metr doirasida soliq solishdan va yer solig'idan ozod etish qonunlarda belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 1 dekabrda PF 5270 son Farmoniga muvofiq 2018 yil 2-iyunda 417 sonli vazirlar mahkamasining qarori qabul qilindi. Unga ko'ra I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga kirish imtihonlarida imtiyozlar berilgan. Bundan tashqari nogironligi bor shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilish texnik vositalari bilan bepul ta'minlash ham nazarda tutilgan.

Umuman olganda nogironligi mavjud bo'lgan kishilarga davlat tomonidan tashkil etilayotgan shart sharoitlar ijobiy bo'lsada bizning fikrimizcha davlat rahbarimiz takidlaganidek bu sohadagi ishlarni kuchaytirish lozim. Bizning taklifimiz quyidagilar:

- Mavjud ish o'rinlarini yarmarkasidagi nogironligi bor shaxslarlar uchun ajratilgan kvotalarni oshirish;
- Nogironligi mavjud shaxslarni har qanday soliq to'lovidan ozod qilish;
- Nogironligi mavjud shaxslarni ish soatini qisqartirish;
- Nogironligi mavjud shaxslarni masofaviy ishlashlari uchun maksimal shart-sharoit yaratish, ya'ni yangi texnika-texnologiya, kompyuter va internet vositalari bilan bepul ta'minlash;
- Korxonalar va tashkilotlarning nogironligi mavjud bo'lgan ishchilarni jalb qilishi maqsadida soliq imtiyozlari va iqtisodiy dastaklar yordamida qo'llab quvvatlash;
- Nogironligi mavjud bo'lgan shaxslarni mehnat stajini hisobga olish, nafaqaga chiqishi, sog'lig'ini tiklash, ortopedik tovarlar bilan ta'minlashda imtiyozlar qo'llash;

Xulosa qilib aytganda, nogironligi mavjud bo'lgan shaxslarni jamiyatda o'qish, ishlash, yashash kabi ijtimoiy iqtisodiy hayotda tengligini ta'minlash asosiy maqsadimizdir. Ularning qonunlarda ko'rsatilgan huquqlarini himoya qilish, qabul qilingan qarorlarning bajarilish yuzasidan kelib chiqadigan muammolarni bartaraf etish, nogironligi mavjud bo'lgan shaxslarning yurtimizda

o'zlarini erkin baxtli hayot kechirishlari uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi 18, 39, 40, 41 moddalar.
2. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" gi 1993-yil 3-senatdagi Qonuni
3. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29-dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 405-moddasi
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 1 dekabrda PF 5270 son Farmoni
7. 2015-yil 27-noyabrdagi 344-son "Fuqarolarni tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarida tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarorlari
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statikasi qo'mitasining 2019 – yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlar to'plami. Toshkent.: 2020 yil